

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLIY VALYUTASINI
MUOMALAGA KIRISHI VA OZBEKISTONNING ESTALIK
TANGALARI

Muhammadiyev Og‘abek Zarif o‘g‘li

*Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-
bosqich talabasi*

Turopova Nigora Xolmurod qizi *Ilmiy rahbar,*

Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola so‘mning muomalaga kiritilishi O‘zbekiston pul muomalasi va hisob-kitoblar tizimini tashkil etish hamda respublika iqtisodiyotini rivojlantirish va markaziy bank tomonidan zarb etilgan estalik tangalar borasida ma’lumotlar keltrilgan.*

Kalit so‘zlar: *so‘m, tanga,pul, milliy valyuta, to‘lov, markaziy bank, banknota, yubley tangalar, so‘m-kupon,*

Ma’lumki **so‘m** — O‘zbekiston Respublikasining **pul birligi**. 1 So‘m qimmati 100 **tiyin**. Xalqaro ifodasi **UZS** So‘m O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida“gi 1994-yil 16-iyundagi farmoni bilan 1994-yilning 1-iyulidan respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to‘lov vositasi sifatida muomalaga chiqarilgan. Qimmatbaho metallar suvi yuritilgan turli qiymatdagi yubiley tangalar esa turli sanalar nishonlanishi munosabati bilan va numizmatik maqsadda chiqarilgan (qarang **Tanga**). So‘mning muomalaga kiritilishi O‘zbekiston pul muomalasi va hisob-kitoblar tizimini tashkil etish hamda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Milliy valyuta pul belgilarini muomalaga chiqarish va uning barqarorligini ta’minlashni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122—moddasi va „O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida“gi qonunning 11-moddasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 1993-yil 3-sentabrdagi 952-XII sonli qaroriga muvofiq 1994-yil 1-iyuldan boshlab, O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi bo'lgan milliy valyuta — „so'm“ muomalaga kiritildi.

2013-yil iyunida 5000 so'm qiymatlik yangi banknota chiqishi haqida xabarlar tarqaldi. 2013-yil 27-iyunida O'zbekiston respublikasi Markaziy banki shu yilning 1-iyulidan boshlab qiymati 5000 so'm bo'lgan pul chiptalarini muomalaga chiqarishini bildirdi. 2017-yil 20-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining „O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 10000 so'mlik banknotlarning chiqarilishi to'g'risida“gi qarori qabul qilindi.

2021 –yil 14 iyundan nominal qiymati 2 000 so'm va 20 000 so'm bo'lgan banknot ko'rinishidagi yangi pul belgilari muomalaga chiqariladi. Banknotlar mavzusi «Buyuk Ipak yo'li» va mamlakat hududidagi qadimiy Buxoro shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixiga bag'ishlangan.

Qayd etilishicha, mazkur banknotlar mavzusi (tematikasi) «Buyuk Ipak yo'li» va mamlakat hududidagi qadimiy Buxoro shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixiga bag'ishlangan. Banknotlar himoyalangan qog'ozda chop etilgan.

2017 yilning 22 avgustidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qiymati 50000 so'm bo'lgan banknot ko'rinishidagi yangi pul belgilarini muomalaga chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 50000 so'm bo'lgan pul belgilari 144 x 78 mm. o'lchamdagi himoyalangan qog'ozda tayyorlangan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki **2019 yilning 25 fevraldan boshlab qiymati 100 000 so'm bo'lgan banknot** ko'rinishidagi yangi pul belgisi muomalaga chiqarilishi to'g'risida ma'lum qiladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Qiymati 100 000 so'm bo'lgan banknotning mavzusi (tematikasi) buyuk o'zbek olimi Mirzo Ulug'bek faoliyati va uning astronomiya fanidagi yutuqlariga bag'ishlangan.

Banknotning o'lchami 144 x 78 mm. bo'lib, maxsus himoyalangan qog'ozda chop etilgan.

Banknotning o'ng tarafidagi oq oval qismida Mirzo Ulug'bek surati ko'rinishidagi lokal suv belgisi va 100000 raqami ko'rinishida filigran suv belgisi joylashgan. Banknotning o'ng tarafidagi qog'oz qatlamida kengligi 5 mm. 3D effektga ega bo'lgan, yuqori himoyali, sho'ng'uvchi, banknotning ustki qatlamiga chiquvchi himoya ipi joylashtirilgan. Yorug'lik manbaida ip to'liq ko'rinishga ega bo'lib, banknotning istalgan qiyalik ko'rinishida ipdagi tasvirlarda siljish effekti paydo bo'ladi. Old va orqa tomonlarining foni asosan och jigarrang va havo ranglaridan iborat. Banknot old tomoning chap qismida Mirzo Ulug'bek haykali tasvirlangan. Banknotning yuqori qismining chap tarafida rangi o'zgaruvchan 100000 raqami joylashtirilgan bo'lib, ma'lum qiyalik burchagida qaralganda uning rangi qirmizi rangdan jigarrangga o'zgaradi.

2022 yilning 15 iyulidan boshlab nominal qiymati 200 ming so'm bo'lgan banknot shaklida pul belgilarini muomalaga chiqarilishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu haqda Markaziy bank matbuot xizmati xabar berdi. Mazkur banknot mavzusi (tematikasi) «Buyuk Ipak yo'li» hamda mamlakat hududidagi Farg'ona vodiysining qadimiy tarixiga bag'ishlangan. Banknot o'lchami: 152×69 mm. Banknotning o'ng tarafida och fonda qadimgi «Buyuk Ipak yo'li»ning ramzi sifatida tuya va «200000» raqami ko'rinishida suv belgilari joylashgan.

Banknotning o'ng tarafida qog'oz qatlamida kengligi 4 mm. li ko'k rangli, «siljish» effektiga, «UZB» yozuviga ega bo'lgan, mikrooptik va mashinada o'qiladigan himoya ipi o'tkazilgan. Old va orqa tomonlarining asosiy rangi — firuza rangda bo'lib, boshqa ranglar bilan uyg'unlashgan.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joiz, O'zbek so'mi O'zbekiston mustaqillika erishgach, iqtisodiy suverenitetni mustahkamlash maqsadida joriy etilgan va bugungi kunda O'zbekiston barcha to'lovlari uchun qonuniy

hisoblanadi. O'zbek so'mining nominal qiymatlari va kupyura razmerlari yillar davomida bir necha marta o'zgartirilgan. Dastlab, 1994-yilda muomalaga kiritilganda kichik nominaldagi kupyuralar (1, 3, 5, 10 so'm) chiqarilgan, ammo inflyatsiya bilan ularning qiymati tezda pasaygan. Bundan tashqari, yangi dizayndagi tangalar va kupyuralar chiqarilib, ularning fizik razmerlari ham biroz kichraytirildi, bu esa naqd pul muomalasini osonlashtirishga qaratilgan. Katta nominaldagi banknotalar inflyatsiyaga qarshi choralar sifatida joriy etilgan bo'lsa-da, hukumatning uzoq muddatli maqsadi inflyatsiyani barqarorlashtirishdir.

2001-yildan 2013-yilgacha O'zbekistonda eng katta kupyura 1000 so'm bo'lib qolgan edi. Bu davrda inflyatsiya ko'tarilib, aholining real xarid qobiliyati pasayganiga qaramay, yangi yirik nominaldagi kupyuralar chiqarilmadi. Buning asosiy sabablari quyidagicha edi:

1. Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga urinish: O'sha davrda davlat inflyatsiyani past ko'rsatishga intilgan va yuqori nominaldagi kupyuralarni chiqarishdan tiyilgan. Bu bilan iqtisodiyotni barqaror ko'rsatish maqsadi qo'yilgan.
2. Inflyatsiyani rasmiy tan olmaslik: Rasmiy inflyatsiya ko'rsatkichlari past bo'lsa-da, amalda inflyatsiya yuqori edi. Yuqori nominaldagi kupyuralarni chiqarish esa amaldagi inflyatsiya darajasini bilvosita tan olish sifatida ko'rilgan.
3. Pul tizimining o'zgarishlardan ehtiyot bo'lishi: Markaziy bank pul tizimida katta o'zgarishlar qilishdan ehtiyot bo'lgan va mavjud kupyura tizimini saqlab qolishga intilgan.
4. Iqtisodiy blokirovkalar va cheklangan integratsiya: O'zbekiston iqtisodiyoti shu davrda ichki o'zini ta'minlash tamoyillariga asoslangan va xalqaro moliyaviy tizimlarga kam integratsiyalashgan edi. Yirik kupyuralarni chiqarish esa ichki iqtisodiy barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkin deb baholangan.

Faqat 2013-yildan so'ng iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi va aholining xarid qobiliyatini saqlab qolish zarurati tufayli 5000 va 10,000 so'mlik yirik nominaldagi kupyuralar chiqarila boshlandi.

2001-yilgi 50 so'm va 2004-yilgi 100 so'mlik tangalar ma'lum sanalarga atab chiqarilgan bo'lsada (mustaqillikning 10 yilligi, milliy valyutaning 10 yilligi),

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Markaziy bank tomonidan esdalik tangalar qatoriga kiritilmagan. 2001—2004-yillarda zarb qiligan 50 va 100 soʻmlik tangalar 2019-yil 1-iyuldan 1, 5 va 10 soʻm qiymatiga ega boʻlgan tangalar 2020-yil 1-martdan muomaladan chiqarilgan.

Esdalik tangalari Markaziy bank tomonidan 1994-yildan beri zarb qilinadi. Tangalar qimmatli metallardan (10, 50 va 100 soʻmli), oddiy metallardan (25, 50, 100 va 500 soʻmli) va oltin qoplamali oddiy metallardan (1 va 10 soʻmli) zarb qilingan.

Barcha kupyuralarning old tomonida Oʻzbekiston gerbi, orqa tomonida Samarqand Registon maydonidagi Sherdor madrasasi tasviri tushirilgan Banknot raqamlari AB 12345678 (1—500 soʻmlar) yoki AB 1234567 (500—10 000 soʻmlar), banknotning old tomonida Oʻzbekiston gerbining ostida joylashgan. 1993-yil 15-noyabrda muomalaga kiritilgan, 1994-yil 1-avgustda muomaladan chiqarilgan. Bu seriyadagi banknotlar Angliyada „Harrison & Sons Ltd“ bosmaxonasida chop etilgan.

Soʻm-Kupon — Oʻzbekistonda 1993-yilning 15-noyabrda ichki bozorda rublning narxi oshib ketishini oldini olish uchun 1992-yilgi «Soʻm-Kupon» vaqtincha muomalaga kiritildi. Ushbu «Soʻm-Kupon» SSSR Rubliga nisbatan birga-bir qiymatga ega boʻlgan. 1994-yilning 1-iyul kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1994-yilning 16-iyundagi №870-sonli qarori asosida «Soʻm-Kupon» muomaladan chiqarildi.

«Soʻm-Kupon»ning barcha banknotalari bir xil turdagi rasmlarga ega edi. Faqat ranglar banknotalarda turlicha boʻlgan. Banknotalarning old tomonida Oʻzbekiston Respublikasi Davlat Gerbi, orqa tomonida esa Samarqanddagi Registon ansamblining Sherdor Madrasasi tasviri joylangan. Banknotalar: 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, 500, 1000, 5000 va 10000 soʻmlik qiymatga ega edi.

Oʻzbek soʻmi jahon valyutalari orasida yetakchi valyutalar qatorida emas va uning xalqaro savdo va moliya bozorlardagi taʼsiri cheklangan. Bunga sabab bir nechta omillar bor:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1. Valyuta konvertatsiyasi cheklanganligi: O'zbek so'mi to'liq erkin konvertatsiyalangan valyuta emas, ya'ni u xalqaro bozorda cheklangan miqyosda qabul qilinadi. Buning natijasida so'm xalqaro savdo operatsiyalarida keng qo'llanilmaydi.

2. Iqtisodiy o'lcham va integratsiya: O'zbekiston iqtisodiyoti nisbatan kichik bozor hisoblanadi va xalqaro moliyaviy tizimga yuqori darajada integratsiyalanmagan. Buning natijasida so'm boshqa kuchli iqtisodiyotlar (masalan, AQSh dollari, yevro, yoki yapon iyenasi kabi valyutalar) bilan raqobat qila olmaydi.

3. Inflyatsiya va barqarorlik masalalari: Yillik inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori bo'lganligi sababli, O'zbek so'mi qiymati tez-tez pasayib boradi. Bu holat so'mga bo'lgan ishonchni pasaytiradi va uni xalqaro bozorda jozibador qilmaydi.

4. Xalqaro e'tirof va foydalanish cheklovlari: Jahon miqyosida O'zbek so'mi nisbatan kam e'tirof etilgan va kam foydalanuvchi davlatlar qatorida, shuningdek, xorijiy banklarda so'mni saqlash yoki ishlatish imkoniyatlari ham cheklangan.

Shunday bo'lsa-da, O'zbek so'mi O'zbekistonning ichki iqtisodiyotida keng qo'llaniladi va oxirgi yillarda Markaziy bank islohotlar orqali uning barqarorligini ta'minlashga harakat qilmoqda. Shu bilan birga, hukumat va Markaziy bank tomonidan valyuta bozorini liberallashtirish, inflyatsiyani nazorat qilish va milliy valyutani mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Inflyatsiya va devalvatsiya: Mustaqillik yillaridan buyon O'zbek so'mi inflyatsiya va devalvatsiyaga uchrab kelmoqda. Ayniqsa, 1990-yillarda va 2017-yilda amalga oshirilgan valyuta liberallashtirishidan so'ng so'mning qiymati ancha pasaydi. 2017-yilgi islohotdan so'ng, so'm kursi talab va taklifga asoslangan erkin kursga o'tkazildi.

Yangi kupyura dizaynlari: O'zbek so'mi kupyuralari va tangalari dizaynida milliy meros, arxitektura va tarixiy obidalar tasvirlari keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda chiqarilgan 50,000, 100,000 va 200,000 so'mlik kupyuralar

modernlashtirilgan va zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan. Bu kupyuralarda Samarqanddagi Registon majmuasi, Buxorodagi Ark qal'asi kabi tarixiy obidalar tasvirlangan.

Tangalar: Inflyatsiya sababli 1, 5, 10, va 50 tiyinlik tangalar amalda ishlatilmay qo'yilgan. Hozirda esa 50, 100, 200, 500 va 1000 so'mlik tangalar muomalada mavjud. Tangalarning kundalik hayotda ishlatilishi kam bo'lsa-da, ularning chiqarilishi milliy valyuta tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Markaziy bankning roli: O'zbekiston Markaziy banki so'mning qiymatini barqaror saqlash uchun asosiy organ hisoblanadi. Bank foiz stavkalarini belgilash, inflyatsiya va iqtisodiy o'sishni nazorat qilish orqali milliy valyuta kursini boshqarib keladi.

Valyuta almashuvi va xorijiy valyutaga talab: O'zbekistonda xalqaro savdo, sarmoya va chet elda ishlayotgan fuqarolar tomonidan dollar, yevro kabi kuchli valyutalarga talab yuqori. 2017-yildagi islohotdan so'ng, valyuta almashuvi liberallashtirilib, xorijiy valyutani banklardan sotib olish imkoniyati kengaydi.

Kelajak rejalari: O'zbekiston hukumati va Markaziy bank valyuta barqarorligini ta'minlash va inflyatsiyani pasaytirishga intilmoqda. Kelajakda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va moliyaviy tizimni mustahkamlash orqali so'mning xalqaro bozordagi qiymatini oshirish rejalashtirilgan. Shu sababli, O'zbek so'mi ichki bozorda kuchliroq pozitsiyaga ega bo'lishi uchun muhim iqtisodiy islohotlar va valyuta tizimini mustahkamlash jarayoni davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fayzulla Mullajonov. O'zME. Toshkent
2. ↑ „Ижтимоий тармоқларда беш минг сўмлик банкнотанинг суратлари пайдо бўлди“.
3. „O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 5000 so'm bo'lgan pul biletlarini muomalaga chiqarish to'g'risida“. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2013-yil 27-iyun). 11-avgust 2013-yilda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 27-iyun 2013-yil. (Wayback Machine saytida 11-avgust 2013-yil sanasida arxivlangan)

4. ↑ O‘zbekistonda 10000 so‘mlik muomalaga chiqarilishi kutilmoqda
5. ↑ „O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati 2 000 so‘m va 20 000 so‘m bo‘lgan pul belgilarini muomalaga chiqarish to‘g‘risida“ (2021-yil 5-iyun). Qaraldi: 2022-yil 20-avgust.